

## TA`LIM JARAYONINI BOSHQARISH, INFORMATSIYA-KOMMUNIKATSIYA SISTEMASIDAN FOYDALANISH

*Kubeysinova Nilufar Maxmutovna*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda ta`lim jarayonini boshqarishni tashkil etish masalalari, unda informatsiya-kommunikatsiya sistemasining ahamiyati, undan foydalanish istiqbollari, modellari xususida so`z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Elektron ta`lim, informatsiya, MOODLE, kommunikatsiya, masofaviy ta`lim, boshqarish.

### **KIRISH**

Hozirgi davrda ta`limning elektron shakli jadal rivojlanib borayotganligining guvohi bo`lmoqdamiz. Bu holat elektron ta`lim tizimi va ko`plab boshqa ishlab chiqarish vositalarining paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta`limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-5538-sonli Farmoni<sup>1</sup> bilan ta`limni boshqarish yo`nalishlari belgilab berildi.

Elektron ta`lim tizimi foydalanuvchiga o`quv materiallari va ulardan olingen bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o`quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta`limda o`quv vositalaridan foydalanish o`zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirmoqda. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta`lim tizimi sifatini baholash uslublari o`qish jarayoni natijalari nuqtai nazaridan, o`qitish tizimlarini baholashgan.

Elektron ta`lim texnologiyasining rivoji elektron o`qitish tizimida ta`lim strategiyasining tuzilishi va har bir o`quvchi uchun o`quv materiallarini yakka tartibda taqdim etish kabi imkoniyatlarni bermoqda. Shunga muvofiq ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar, doimiy talablarning o`sishi va elektron ta`lim tizimini amalga oshirishda zaruriy baholash va boshqarish sifatlari shakllandi. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta`lim tizimi sifatini baholash uslublari o`qish jarayoni natijalari nuqtai nazaridan, o`qitish tizimlarini baholashgan<sup>2</sup>.

Shu sababli ham elektron ta`lim tizimi sifatini baholash mezonlari va usullari o`qitish jarayoni sifatini boshqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi, joriy etish va foydalanish bosqichlarini ishlab chiqish zarur.

O`qitish modeli quyidagi: ta`lim maqsadi haqida; o`quv kursi doirasida o`rganuvchining bilimi haqida (o`quv kursining joriy holati); nazorat savollari va vazifalar tanlovi hamda o`quv materiallarini uzatish asoslari haqida; o`quvchilar bilan ishlash natijalari bo`yicha o`qitish modelining o`zgarishi qoidalari haqida axborotlarni jamlashi kerak. Har bir o`rganuvchiga tizimning boshlang`ich sozlanishni ajratish va

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3893445>

<sup>2</sup> [www.mininnovation.uz](http://www.mininnovation.uz)

o‘rganuvchi bilan kelajakda ishlash uchun baza paydo qilishda ko‘plab o‘quv materiallari va tizim bilan ishlashda o‘ziga maqsad berilgan bo‘lishi zarur. Keng tarqalgan o‘qitish modellari quyidagi: overleyli; har xillilik; o‘zgarishlilik jihatlaridan iborat. Bunday modellarni qurishda ikki asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ekspert o‘qitish tizimlaridagi o‘qitish modellari mazmunida o‘rganuvchilar bilan tizim muloqoti jarayonini boshqarish xususiyatlari ahamiyatiga asoslangan barcha qoidalar va ko‘rsatkichlar majmuasi tushuniladi. Boshqa turdag'i o‘qitish tizimlaridagi o‘qitish modellarida o‘qitilayotgan. Fan bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ajratish va o‘quvchilarning tizim bilan ishlash ko‘rsatkichlari majmuasi tushuniladi. Shunga qaramay, o‘qitish modelini ko‘rsatkichlar majmui sifatida tushunish — bu juda ham tor tushuncha bo‘lgan bo‘lardi. Ushbu xususiyatlар majmui uslublarsiz o‘z ma’nosini yo‘qotadi. O‘quv materiallarini o‘zlashtirish modeli. O‘quv materiallarini o‘zlashtirish modeli mavzuning qanday izchillikda o‘rgatish va ular orasida mantiqiy bog‘liqlikni aks ettiradi. O‘quv kursini loyihalashning boshlang‘ich bosqichlarida o‘quv materialini o‘rganishni rejalashtirish uchun alohida o‘quv elementlari ishlab chiqildi.

Murakkablikning oshib borishi bilan pedagogik testlash modeli. Bilim sohasi qismi yoki bir qancha qismlari, ajratilgan qismlari bo‘yicha n ta vazifaga ega. Har bir vazifa murakkablik ajratgan darajasiga ega. Ti; i=1, 2, 3 ... n.model quyidagi to‘rt bosqichdan iborat:

-o‘quv elementlarining matritsa tartibli munosabatini shakllantirish;

-o‘quv elementlari ro‘yxati ko‘rinishida o‘quv fan bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ajratish va o‘quvchilarning tizim bilan ishlash ko‘rsatkichlari majmuasi tushuniladi.

-ssenariy bo‘yicha pedagogik testlash modeli. Quyidagi jihatlar o‘qituvchilar tomonidan testlar ssenariysini shakllantirishda qo‘llaniladi: testda har bir mavzu bo‘yicha qancha vazifalar soni mavjud bo‘lishi; testda murakkabligi darjasasi bo‘yicha bir qancha vazifalar soni mavjud bo‘lishi;

-topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etish. Zamonaviy talablarga muvofiq, o‘quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta’limda o‘quv vositalaridan foydalanish o‘zlashtirishni osonlashtirib, qiziqlarlilik jihatini oshirmoqda.

Masofaviy ta’lim – zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida masofadan turib ma’lumotlarni uzatish, qabul qilish orqali ma’lum fan yoki soha bo‘yicha o‘qitish shakli bo‘lib, an’anaviy ta’limga nisbatan o‘ziga xos avzallikkarga ega. U bir vaqtning o‘zida jamoaning keng qatlamiga ta’lim berishda qo‘l keladi. Fan-texnika rivojlanishi tufayli o‘quvchilarga berilishi zarur bo‘lgan axborot miqdori nihoyat darajada ko‘payib bormoqda. Bu axborotlarni talabalarga an’anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish murakkab

vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda talabalarga bilim berish jarayonida masofadan turib o'qitish juda zarur vositalardan biri bo'lib, jahon miqiyosida bu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda. Bunga misol tariqasida MOODLE tizimida masofadan ta'lif berishni misol qilib olish mumkin<sup>3</sup>.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, elektron ta'lif tizimi sifatini baholash mezonlari va usullari o'qitish jarayoni sifatini boshqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi tizimni ishlab chiqish, joriy etish va foydalanish muhim ahamiyatga molikdir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya nashriyoti, 2009.
2. Xamidov V.S. Erkin va ochiq kodli LMS tizimlar tahlili, infocom.uz jurnali №7,8. 14 bet, 2013 y.
3. Turdiyeva G.S., Ismoilova M.N. Masofadan o'qitishning Moodle tizimida ishlash. Buxoro 2014. 66 bet.
4. <http://www.moodle.org>.
5. [www.mininnovation.uz](http://www.mininnovation.uz)
  
6. [www.uz.undp.org](http://www.uz.undp.org)

---

<sup>3</sup> <http://www.moodle.org>.